



ISSN 2091-5187

# СЕРВИС

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ  
ЖУРНАЛ

2024  
2/2-сон



## МУНДАРИЖА:

<b>НАЗАРИЯ ВА МЕТОДОЛОГИЯ</b>	
<b>Соҳибназар Каримов</b> Тасаввуф таълимотида тарбия хизмати масаласи	5
<b>Diyor Haqberdievich Xolmamatov</b> Ulgurji savdoni iqtisodiyotdagi o‘rni va ahamiyati bilan bog‘liq ilmiy-nazariy qarashlar	11
<b>Shohida Kamoliddin qizi Jo‘raboyeva</b> Eksport salohiyati tushunchasining konseptual asoslari	15
<b>Rustam Nuridinovich Jiyamuratov</b> Hududiy eksport salohiyatini oshirishga oid nazariy yondashuvlar	22
<b>РАҚАМЛИ ВА ИННОВАЦИОН ИҚТИСОДИЁТ</b>	
<b>Ziyobidin Shaminovich Suvonov</b> Sun‘iy intellekt va uning imkoniyatlari	27
<b>САНОАТ ВА ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИ</b>	
<b>Фарход Бахриддинович Ахроров</b> Ўзбекистонда ер ресурсларини баҳолашнинг экологик-иқтисодий услубияти	31
<b>Shexroza Madjitovna Karimova</b> Qovoq – funksional oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishda istiqbolli xomashyo	36
<b>ТАДБИРКОРЛИК, МЕҲНАТ, БАНДЛИК ВА КАМБАҒАЛЛИКНИ ҚИСҚАРТИРИШ</b>	
<b>Феруза Асатовна Ишонкулова</b> Необходимые условия для успешной деятельности предпринимательства в Республике Узбекистан	39
<b>Rahmatillo Miralimovich Egamov, Rushona Sheraliyevna Husainova</b> Hududiy iqtisodiyotning rivojlanishida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning o‘rni	45
<b>ХИЗМАТ КЎРСАТИШ ВА СЕРВИС</b>	
<b>Сарвар Аюбовна Исхакова</b> Хизмат кўрсатиш соҳасини ривожлантиришда тadbirkorlikнинг салоҳиятидан фойдаланиш имкониятлари	49
<b>Zoxid Sobirovich Axmedov</b> Transport logistikasi xizmatlari samaradorligini oshirishda innovatsion jarayonlarning qo‘llanilishi	53
<b>Обид Мамаюнович Пардаев</b> Хизмат кўрсатиш соҳасини такомиллаштириш ҳисобига маҳаллалар ободлигини таъминлаш масалалари	57
<b>Фарход Анварович Сафаров</b> Ўзбекистонда хизматлар соҳасининг комплекс стратегик таҳлилинини TOWS-матрицаси ёрдамида амалга ошириш имкониятлари	60
<b>Orzujon Mamasoliyevich Rajabov</b> Logistika xizmatlari samaradorligini oshirishda raqamli texnologiyalardan foydalanish	65
<b>Bekzod Maxsudovich Abdumannonov</b> Ekologik toza jamoat transportidan samarali foydalanish – avtomobillar tirbandligini bartaraf etishning kafolatidir	70

logistik servis: me’yorida tovar zaxiralari bo’lishini ta’minlash, kerakli joyga, kerakli hajmdagi tovarlarni, o’z vaqtida yetkazib berish, sotuvdan keyingi servis kabilar bilan ham bog’liqdir.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:**

1. International Standard Industrial Classification of All Economic Activities. Revision 4. ST/ESA/STAT/SER.M/4/Rev.4
2. Coskun Samli & Adel I. EI-Ansary (2007). The role of wholesalers in developing countries. The International Review of Retail, Distribution and Consumer Research Journal, vol. 17, pp. 353-358
3. Hugh MacKeown (2007) Wholesaling and wholesaling research: A practitioner’s viewpoint. The International Review of Retail, Distribution and Consumer Research Journal, vol. 17, pp. 413-422
4. O’zbekiston Respublikasi umumdavlat tasniflagichi. O’zbekiston Respublikasi iqtisodiy faoliyat turlari tasniflagichi (2 taxrir) – O’zDT 005:2011
5. Philip Kotler. Marketing essentials. Prentice-Hall, 1984. 556 pages.
6. Национальный стандарт Российской Федерации. ГОСТ 51303-2013. ТОРГОВЛЯ. Термины и определения. TRADE. Terms and definitions.
7. Л.Ю.Ананьева. Основные функции оптовой торговли. Справочник от автор – 24. [https://spravochnick.ru/marketing/optovaya\\_torgovlya/osnovnye\\_funkcii\\_optovoy\\_torgovli/](https://spravochnick.ru/marketing/optovaya_torgovlya/osnovnye_funkcii_optovoy_torgovli/)
8. Федыко В.П. Основы маркетинга. Ростов н/Д: Феникс, 2001

<p><b>Д.Холмаматов</b>  <b>Научно-теоретические соображения о роли и значении оптовой торговли в экономике</b>  <b>Аннотация:</b> в статье приведены определения ведущих ученых о роли и значении оптовой торговли в экономике страны, основных функциях, выполняемых оптовой торговлей, Госстандарте Республики Узбекистан УзДТ 005:2011 «Общая государственная классификация Республики Узбекистан». Изучена классификация оптовой торговли согласно Классификатору экономической деятельности Республики Узбекистан (2 редакции)» и Классификации внешнеэкономической деятельности.  <b>Ключевые слова:</b> оптовая торговля за свой счет, оптовая торговля на основе платежа или договора, неспециализированная оптовая торговля, специализированная оптовая торговля, функция связи покупатель-покупатель, функция связи покупатель-поставщик.</p>	<p><b>D.Kholmamatov</b>  <b>Scientific and theoretical considerations on the role and significance of wholesale trade in the economy</b>  <b>Abstract:</b> the article provides definitions from leading scientists about the role and importance of wholesale trade in the country's economy, the main functions performed by wholesale trade, and the State Standard of the Republic of Uzbekistan UzDT 005:2011 “General state classification of the Republic of Uzbekistan”. The classification of wholesale trade according to the classification of economic activities of the Republic of Uzbekistan (2 revision)" and the classification of international economic activities was studied.  <b>Keywords:</b> wholesale trade on own account, wholesale trade on the basis of payment or contract, non-specialized wholesale trade, specialized wholesale trade, customer-buyer communication function, customer-supplier communication function.</p>
---	--

**Shohida Kamoliddin qizi Jo’raboyeva** – Namangan muhandislik-texnologiya instituti doktoranti

**EKSPORT SALOHİYATI TUSHUNCHASINING KONSEPTUAL ASOSLARI**

**Annotatsiya:** ushbu maqolada eksport salohiyatini oshirish dolzab masala ekanligi asoslangan hamda eksport salohiyatini oshirish masalalari bilan shug’ullangan olimlarining “Salohiyat”, “Ishlab chiqarish salohiyati”, “Iqtisodiy salohiyat” va “Eksport salohiyati” tushunchalari bo’yicha fikrlari o’rganilgan, taqqoslangan, umumlashtirilgan, xulosalar yasalgan va mualliflik ta’rifi keltirilgan.  
**Kalit so’zlar:** salohiyat, ishlab chiqarish salohiyati, iqtisodiy salohiyat, eksport, eksport hajmi, eksport salohiyati, xususiy eksport salohiyati, umumiy eksport salohiyati, resurs, raqobat, daromad.

**Kirish.** So’nggi yillarda mamlakatimizda to’qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini rivojlantirish, soha korxonalarining investitsiya va eksport faoliyatini qo’llab-quvvatlash bo’yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilishi natijasida respublikada ishlab chiqarilayotgan paxta

tolasi to‘liq va ip kalavaning 45 foizi qayta ishlanmoqda, shuningdek, sohaning yillik eksport salohiyati 3,2 milliard dollardan oshdi [1].

“O‘zto‘qimachilik sanoat” uyushmasining ma‘lumotlariga ko‘ra to‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini davlat tomonidan keng miqyosda qo‘llab-quvvatlash orqali sohaning eksport salohiyatini 5 milliard AQSH dollariga yetkazish, tikuv-trikotaj mahsulotlari ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish darajasini 65 foizdan 81 foizga oshirish, 35 mingta bo‘sh ish o‘rinlarini to‘ldirish vazifasi qo‘yilgan.

Keyingi paytlarda kundalik hayotimizda “Salohiyat”, “Ishlab chiqarish salohiyati”, “Iqtisodiy salohiyat”, “Investitsion salohiyat”, “Innovatsion salohiyat”, “Eksport salohiyati” kabi atamalar tez-tez uchramoqda va qo‘llanilmoqda.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Ushbu maqolani yozishda xorijlik olimlar Karachayev I.A [3], Volkodavova Ye.V. [4], Gubin A.M. [5], Gubin A.M. [6], Rusakov I.A. [7], Sichev M.S. [8], Yakovlev G. I. [9], Voysexovskaya I.A. [11], Popov Ye.V. [12], Sokolov A. B. [13], Manin P.V. [14], Barnegols S.B. [18] va boshqa tadqiqotchilarning eksport salohiyati bo‘yicha ilmiy ishlari metodlogik asos sifatida xizmat qildi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Ushbu maqolada eksport salohiyati tushunchasining konseptual asoslarini tadqiq qilish borasida tadqiqotning tahlil, sintez, taqqoslash, mantiqiy tahlil, induktiv, deduktiv va abstrakt fikrlash kabi usullardan foydalanilgan.

**Tahlil va natijalar.** Salohiyat tushunchasiga shu sohani rivojlantirish bo‘yicha ilmiy tadqiqot olib borgan bir qator olimlar tomonidan ta‘rif berilgan bo‘lib, ularning ayrimlariga to‘xtalib o‘tamiz.

O‘zbekiston milliy ensiklopediyasida salohiyat tushunchasiga quyidagicha ta‘rif berilgan “biror vazifani hal etish va ko‘zlangan maqsadga erishishda foydalaniladigan manba, imkoniyat, mablag‘, zaxiralar; ayrim shaxs, jamiyat, davlatning muayyan sohadagi salohiyatlari” [2].

I.A. Karachayevning fikricha salohiyat deganda – keng ma‘noda davlatning aniq bir sohasini, alohida shaxslarning imkoniyatlarini, qandaydir vazifani bajarishni, rejani amalga oshirishni, aniq maqsadlarga erishishni ta‘minlashda foydalaniladigan, faollashtirilgan, mavjud va jalb etilishi mumkin bo‘lgan manbalar, vositalar, zaxiralar tushuniladi [3].

Binobarin, salohiyat deganda ham mavjud resurs va imkoniyatlar, shuningdek, ulardan maqsadli foydalanish yo‘nalishlari nazarda tutiladi. Shuni ta‘kidlash kerakki, salohiyat – bu erishilgan va aniq maqsad uchun foydalanish ehtimoli bo‘lgan, ya‘ni ma‘lum sharoitlarda erishish mumkin bo‘lgan birlikning o‘lchovidir.

“Salohiyat” atamasi birinchi marta o‘tgan asrning 70 – yillarini oxirlari – 80-yillarini boshlarida qo‘llanila boshlangan bo‘lib, bugungi kunda muhim iqtisodiy kategoriya hisoblanadi.

Korxonaning raqobatbardoshligini ta‘minlashda tashqi iqtisodiy va eksport faoliyatining xususiyatlari muhim ahamiyatga ega.

Eksport - tovarlar, xizmatlar, investitsiya, qimmatli qog‘ozlar, texnologiyalar va boshqalarni tashqi bozorga chiqarish bo‘lib, korxonaning samarali faoliyati natijasidir. Eksportni amalga oshirish uchun korxonadan ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar jahon bozoridagi raqobatga bardosh bera olishi, ya‘ni raqobatbardosh bo‘lishi lozim. Biroq, korxonalarining tashqi bozorlarga chiqishini barcha shakllari ma‘lum bir xatarlar bilan bog‘liqligini tushunmoq kerak. Xatarlarni kamayishi bozorlarning o‘ziga xos xususiyatlarini va konyunkturasini o‘rganish va korxonaning eksport salohiyatini to‘g‘ri baholash bilan bog‘liq bo‘ladi.

Hozirgi sharoitda ushbu iqtisodiy kategoriyaning tarkibi bo‘yicha munozaralar davom etmoqda. Eksport salohiyati iqtisodiy salohiyat tushunchasi bilan bevosita bog‘liq bo‘lganligi sababli avvalo “Korxonaning iqtisodiy salohiyati” tushunchasining asosiy ta‘riflarini ko‘rib chiqamiz (1-jadval).

Yuqorida keltirilgan ta‘riflarga asoslanib, “korxonaning eksport salohiyati” (KES) tushunchasi bo‘yicha quyidagi yondashuvlarni ajratib ko‘rsatish mumkin:

1. Resursga yo‘naltirilgan yondashuv (KES omillar va resurslar majmui sifatida).
2. Funktsional yo‘naltirilgan yondashuv (KES korxonadan faoliyatini tashqi bozorda ta‘minlovchi, iqtisodiy potensialning dinamik tarkibiy qismi sifatida).

**“Korxonaning iqtisodiy salohiyati” (KIS) tushunchasining asosiy ta’riflari**

<b>T/r</b>	<b>Ta’rif</b>	<b>Manbaa</b>
1.	KIS - yaqin va uzoq xorijiy bozorlarda tashqi omillarning ta’sirini va ichki omillarning holatini hisobga olgan holda barqaror savdo hajmlarini belgilangan rentabellik darajasini saqlagan holda ta’minlanishini hisobga oluvchi, korxonaning maqsad va vazifalariga mos keladigan tashkiliy-texnik tuzilishi, iqtisodiy potensialning dinamik o’zgaruvchan tarkibiy qismidir	Ye.V.Volkodavova [4]
2.	KIS - tashqi bozorda sotish maqsadida yuqori sifatga ega bo’lgan, raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish imkoniyatini belgilovchi ishlab chiqarish, texnologik, ilmiy, mehnat omillari majmuidir	A.M.Gubin [5]
3.	KIS - korxonaning ishlab chiqaradigan yoki mavjud mahsulotlarini eksport qilishning potensial imkoniyatidir	B.A.Rayzberg, L.Sh.Lofovskiy [6]
4.	KIS – korxonaning ishlab chiqarish va iqtisodiy imkoniyatlari, ishlab chiqarilgan mahsulotlarni xorijga sotish, to’g’ridan-to’g’ri investitsiyalarni jalb qilish va xalqaro kooperatsion-sanoat jarayonlarida (tadbirlarida) ishtirok etishiga asoslangan imkoniyatlari majmuidir	I.A.Rusakov [7]
5.	KIS - raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish uchun mavjud resurslar va imkoniyatlar, ularni tashqi bozorlarda sotish va ularga ham qisqa va ham uzoq muddatli istiqbolda xizmat ko’rsatish majmuidir	M.S.Sichev [8]
6.	KIP – korxonaning yaratish va eksport uchun raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish, ularni tashqi bozorda targ’ib qilish, foyda bilan sotish va talab darajasida xizmat ko’rsatishni ta’minlash imkoniyatlari majmuidir	G.I.Yakovlev [9]

3. Raqobatbardosh yondashuv (KES raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish yo’li bilan tashqi bozordagi imkoniyatlarini aniqlash va raqobatdagi ustunliklardan foydalanish qobiliyati sifatida).
4. Daromadga yo’naltirilgan yondashuv (KES tashqi bozorda maksimal daromad olishni ta’minlash (foydali sotish qobiliyati sifatida).
5. Rivojlanishga yo’naltirilgan yondashuv (KES jahon bozorida rivojlanish qobiliyati sifatida).

Har bir yondashuv u yoki bu darajada “korxonaning iqtisodiy salohiyati” tushunchasining ayrim jihatlarini o’zida aks ettiradi, ammo korxonada ma’lum iqtisodiy muhitda doimo o’zgarib turishi kerakligi, shuning uchun hammasi korxonada rivojlanishi omiliga bog’liq bo’lishi lozimligini yodda tutmoq lozim. Bizning fikrimizcha, eksport salohiyatining zamirida rivojlanishga yo’naltirilgan yondashuv yotishi kerak.

Yuqoridagi fikrlarga asoslanib, korxonaning eksport salohiyati deganda biz mavjud va bo’lishi mumkin bo’lgan resurslar va vositalarga asoslanuvchi, shuningdek, korxonaning raqobatbardosh mahsulotni ishlab chiqarish va tashqi bozorga yetkazib berish imkoniyatini hisobga oluvchi korxonaning iqtisodiy salohiyatining dinamik tarkibiy qismini tushunamiz.

Korxonada salohiyatining tuzilishi, boshqacha qilib aytganda uning tarkibiy qismlar haqida fikr yuritganda, ushbu masala bo’yicha nuqtayi nazarlarning xilma-xil ekanligini ta’kidlash lozim. Har bir muallif korxonada salohiyatining tuzilishi bo’yicha boshqa g’oyalardan sezilarli darajada farq qiluvchi o’z qarashlarini bildiradi.

V.Ya.Gorfinkel tomonidan korxonada salohiyatining tarkibiy qismlarini nisbatan umumiy tasnifi taklif etilgan. U firma ikki yo’nalishda – ekstensiv va intensiv yo’nalishda rivojlanishi mumkin deb hisoblaydi [10]. Tegishli ravishda konservativ va innovatsion rivojlanish potensialini ajratib ko’rsatish mumkin. Bizning fikrimizcha, bu yondashuv juda keng, chunki korxonada potensialining alohida tarkibiy qismlarini va ularning o’zaro ta’siri sxemasini ajratib ko’rsatishga imkon bermaydi.

I.A.Voysexovskaya korxonalar salohiyatining quyidagi asosiy tarkibiy qismlari: texnik-texnologik, xodimlar, moliyaviy, tashkiliy-boshqaruv, marketing, innovatsiyalarni ajratib ko'rsatadi [11]. Ushbu yondashuvni funksional yondashuv deb hisoblash mumkin, ammo bu yondashuv ham korxonalar salohiyatining tarkibiy qismlarini to'liq ro'yxatini ochib bermaydi, chunki bu yondashuvda faoliyatning ichki iqtisodiy jihatlari hisobga olinadi.

Bugungi kunda korxonalar salohiyati tushunchasini ishlab chiqarish dasturining salohiyati tushunchasi bilan almashtiruvchi, ishlab chiqarish salohiyati tarafdorlarining ko'p sonini yo'qotdi.

Albatta, ishlab chiqarish omillarining ahamiyati va muhimligini inkor eta olmaymiz, biroq ularni mutlaqlashtirish mumkin emas. Bunday qarama-qarshilik bozor yondashuvini taqdim etadi. Bu yondashuv tarafdorlari, aksincha, salohiyat faqat tashqi muhit hisobiga yaratiladi, deb hisoblab, ko'pincha korxonalar ichki muhiti sharoitlarini e'tiborsiz qoldiradilar [12].

Yu.V. Kuznetsovning fikriga ko'ra, firmaning jami salohiyatining muhim tarkibiy qismi – bu tadbirkorning o'z salohiyatidir. Korxonalar salohiyatiga uni boshqaruvchilarining imkoniyatlari orqali qarash juda to'g'ri bo'ladi. Ammo, shu bilan birga, korxonalar faoliyati natijalarini baholashda psixologik omillarning o'rnini mutlaqlashtirmaslik kerak.

A.V.Sokolov tomonidan korxonalar umumiy salohiyatining ikki darajali strukturasi taklif etilgan [13]. Birinchi daraja – bu tabiiy, texnologik, texnik, tashkiliy va ijtimoiy-iqtisodiy salohiyatlarni o'z ichiga olgan ishlab chiqarish salohiyatidir. Ikkinchi daraja moliyaviy salohiyati asosida shakllanadi, ya'ni korxonaning ishlab chiqarish salohiyatini oshirish, joriy faoliyatga va kelgusidagi rivojlanishga sarmoya kiritish uchun korxonaning moliyaviy imkoniyatlarining mavjudligi.

Yuqorida keltirilgan yondashuvlarning afzalliklarini e'tirof etgan holda korxonaning kelajakdagi rivojlanish jarayonini shakllantiruvchi maqbul omillar to'plamini ta'minlaydigan korxonalar salohiyatining tarkibiy elementlarining tasnifi mavjud emasligini ta'kidlash maqsadga muvofiq. Mavjud yondashuvlarni tahlil etish bir qator muhim xulosalarni shakllantirishga imkon beradi.

1. Mualliflar asosiy e'tiborni korxonani turli xil resurslar bilan ta'minlanganligiga qaratadilar. Shu bilan birga, “salohiyat” tushunchasi iqtisodiy tizimni rivojlantirish, ishlab chiqarish va belgilangan maqsadlarga erishish uchun integral qobiliyat va imkoniyatlarni o'z ichiga oladi. Resurslar, ularni to'ldirish manbalari, tizim ichidagi aloqalar, tashqi muhit bilan aloqalar – bu faqatgina sanoat korxonalarining rivojlanishi uchun zarur bo'lgan imkoniyatlar majmuini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan omillardir.


2. Operativ va strategik rejalashtirish darajalarini ajratish orqali matritsa vositalaridan foydalanish korxonalar salohiyati strukturasi yondashuvlarni shakllantirishda sezilarli katta siljish bo'ldi. Ammo, bu holda, turli xil salohiyatlarning shakllanishi va o'zaro ta'siri jarayonining umumiy manzarasi aniq emas.

3. Korxonaning umumiy salohiyati tarkibidagi asosiy yondashuvlarning hech biri muhim tarkibiy qism bo'lgan eksport salohiyatining ahamiyatini ajratib ko'rsatmagan. Biroq, hozirgi zamonaviy sharoitda aynan eksport komponenti raqobatbardoshlikni oshirish va korxonaning barqaror rivojlanishini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega bo'lib bormoqda.

Yuqorida ta'kidlanganidek, salohiyatni statik (harakatsizlik) holatida deb hisoblash mumkin emas, chunki bu hodisa doimo rivojlanib boradi. Shuning uchun I.A.Karachev korxonaning eksport salohiyatini shakllantirish va amalga oshirish jarayonini sxema ko'rinishida aks ettirishni taklif etadi [3]. (1-rasm).

Eksport salohiyatini korxonaning umumiy salohiyatidagi o'rnini va ahamiyati to'g'risida tasavvurga ega bo'lgan holda, eksport salohiyatining o'zi ham bir nechta elementdan iborat bo'lgan tizim ekanligini unutmaslik lozim. Korxonaning faoliyat ko'rsatishi va rivojlanishi bilan bog'liq bo'lgan barcha resurslar korxonaning eksport salohiyati strukturasi tarkibiy qismlari hisoblanadi.

Eksport salohiyatining strukturasi va uning asosiy tizimli xususiyatlarini ko'rib chiqib, eksport salohiyatining asosiy tasnifi masalasini ko'rib chiqish zarur.



### TASHQI MUHIT

**1-rasm. Korxonaning eksport potensialini o‘zgarish sur‘atida shakllanishi (jarayon sxemasi).**

Bizning fikrimizcha, eksport salohiyatini taqsimlashning eng muhim tasniflash mezonini bu foydalaniladigan resurslar turidir.

Ushbu mezonga muvofiq quyidagilarni ajratib ko‘rsatish mumkin:

- ichki eksport salohiyati;
- tashqi eksport salohiyati.

Korxonaning ichki eksport salohiyati o‘z ichiga eksport uchun mahsulot ishlab chiqarishga zarur bo‘lgan resurslar to‘plamini oladi. Bunday resurslar jumlasiga, tabiiy, mehnat, moliyaviy, material va axborot resurslarini kiritish mumkin. Shu bilan birga, eksport salohiyatini rivojlantirishning asosiy omili nafaqat ushbu resurslarning mavjudligi, balki ulardan foydalanish samaradorligi bo‘ladi.

Korxonaning tashqi eksport salohiyati raqobatbardosh mahsulotni sotish bilan bog‘liq bo‘lib, korxonaning marketing, logistika va servis faoliyatini samarali tashkil etish orqali ta‘minlanadi.

P.V.Maninning fikriga ko‘ra eksport salohiyatini umumiy va mahalliy (xususiy) turlarga bo‘linishi kerak [14]. Xususiy eksport salohiyati deganda korxonaning ma‘lum bir mahsulotni ma‘lum bir tashqi bozorda ishlab chiqarish va sotish bo‘yicha maksimal imkoniyatlari tushuniladi. P.V.Manin “Umumiy eksport salohiyati” tushunchasi tarkibiga eksport uchun ishlab chiqarish va korxonaning eksport-marketing faoliyati uchun maksimal imkoniyatlarni kiritadi. Sanoat korxonasi xususiy eksport salohiyatlarining yig‘indisi uning umumiy eksport salohiyatini ifodalaydi.

P.V.Manin xususiy eksport salohiyati tushunchasini tovar turlari va ular sotiladigan bozorlar bo‘yicha batafsil o‘rganib, eksport salohiyatining to‘rt turini ajratib ko‘rsatadi:

1. Mavjud tovarlarning o‘zlashtirilgan bozordagi eksport salohiyati.
2. Mavjud tovarlarning istiqbolli bozordagi eksport salohiyati.
3. Yangi tovarlarning o‘zlashtirilgan bozordagi eksport salohiyati.
4. Yangi tovarlarning istiqbolli bozordagi eksport salohiyati.

Ushbu tasnif I. Ansoff matritsasi asoslangan klassik marketing vositasi bo‘lib, o‘ziga bir tomonlama yo‘naltirilganlik va ikkita tavsifnoma (xususiyat) bilan cheklanganlik uning kamchiligi hisoblanadi.

A.I.Samoukin [15] korxonaning eksport salohiyatini ikki tarkibiy qismga ajratadi:

- obyektiv – eksport uchun mahsulotlar ishlab chiqarishda ishtirok etish uchun real imkoniyatga ega bo‘lgan, u yoki bu sabablarga ko‘ra jalb etilgan (yoki jalb etilmagan) mehnat, nomoddiy, moddiy va tabiiy resurslar to‘plami;

- subyektiv - xodimlar va jamoalarning resurslaridan foydalanish va eksport mahsulotlarining maksimal hajmini yaratish qobiliyati va korxonaning boshqaruv tizimini barcha mavjud resurslardan samarali foydalanish imkoniyatlari.

Ushbu tasnifda iqtisodiy xususiyatlarga qaraganda psixologik xususiyatlarga ko‘proq e‘tibor berilgan. Psixologik xususiyatlarni mutlaqlashtirish bizni eksport salohiyatining mohiyatini ko‘rib chiqishdan uzoqlashtiradi. L.B.Simionova tomonidan qiziqarli tasnif taklif etilgan. U korxonaning eksport salohiyatini to‘rt turini ajratib ko‘rsatdi [16]:

- asosiy salohiyati, korxonaning asosiy biznes maqsadlariga erishishni, iqtisodiy qiymatlar yaratishni va bunda foyda olishni ta‘minlash;

- yashirish salohiyati – bu bosqichda o‘ziga xos ustunliklarni ta‘minlamaydigan, biroq kelajakda ular asosiy vositalarga aylanishi mumkin bo‘lgan aktivlar;

- zarar keltiruvchi salohiyati, uning mavjudligi korxonaga uchun hech qanday foyda keltirmasdan resurslarni iste‘mol qilishga olib keladi;

- kesishuvchi salohiyati, korxonada boshqa potentsiallardan samarali foydalanishni ta‘minlaydigan aktivlarning mavjudligi, xususan, savdo va moliyaviy boshqaruv tizimining yaxshi ishlashi bilan tavsiflanadi.

Bizning fikrimizcha, ushbu tasnif eksport salohiyatining muhim xususiyatlarini to‘liq ochib beradi. Biroq, u juda keng doiraga ega va uni iqtisodiy salohiyatiga ham, korxonaning umumiy salohiyatiga ham qo‘llash mumkin. Biz yuqorida ham ushbu tushunchalarni bir-biridan farqlash zarurligi masalasiga to‘xtalib o‘tgan edik. Bundan tashqari, zarar keltiruvchi potentsialni taqsimlash katta shubhalarni keltirib chiqaradi, chunki aslini olib qaraganda, har qanday salohiyatidan yetarli darajada foydalanmaslik ma‘lum yo‘qotishlarga olib keladi.

Bizning fikrimizcha, A.V. Sidorenko [17], tomonidan taklif etilgan eksport salohiyatining quyidagi turlari ko‘rsatilgan tasnif nisbatan mukammaldir:

- amalda erishilgan salohiyat;

- foydalanilmagan salohiyat.

Uning fikriga ko‘ra, eksport potentsiali elementlarini rivojlantirish sanoat korxonasi samaradorligini oshirishga bevosita ta‘sir qiladi. U ikki yo‘nalishda amalga oshiriladi: amalda erishilgan eksport salohiyatini rivojlantirish va turli sabablarga ko‘ra amalga oshirilmagan eksport imkoniyatlarini tashqi savdo aylanmasiga jalb etish.

Ushbu tasnif iqtisodiy tahlil nuqtayi nazaridan muhim ahamiyatga ega, chunki bu “zaxiralar” tahlili tushunchasini qo‘llanilishiga imkon beradi. Ichki bozorda faoliyat olib olib boradigan oddiy korxonaga uchun ham, eksportga yo‘naltirilgan korxonaga uchun ham zaxiralarni shakllantirishda xatarlar sezilarli darajada oshib ketishi mumkinligi haqida unutmazlik kerak. Zaxiralar, o‘z navbatida, himoya vositasi, ya‘ni korxonaga uchun xavfni kamaytirish vositasi bo‘lib xizmat qiladi.

S.B.Barngols va M.V.Melniklarning fikriga ko‘ra zaxiralarni “korxonaning umumiy salohiyati”ning ikki tomoni sifatida qarash mumkin [18]:

- zaxiralar – vazifasi bo‘yicha vaqtincha foydalanilmaydigan moddiy resurslar. Bunday zaxiralar muayyan sharoitlarda yuzaga keladigan qo‘shimcha ehtiyojlarni qondirish uchun muntazam ravishda yaratiladi;

- zaxiralar – ishlab chiqarish samaradorligini oshirish uchun foydalanilmagan imkoniyatlar. Ularni aniqlash, shuningdek, yo‘llarini va faollashtirish muddatlarini belgilash barcha iqtisodiy aloqalar faoliyatini iqtisodiy tahlil qilishning asosiy vazifasidir.

Bunga asosan, eksport salohiyati amalda erishilgan eksport potentsial va foydalanilmagan (zaxiradagi) eksport potentsiallarining yig‘indisi ko‘rinishida ifodalash mumkin.

**Xulosa va takliflar.** Shunday qilib, korxonaga eksport salohiyatini baholashning asosiy maqsadi korxonaning eksport faoliyati samaradorligini va rentabelligini oshirish, ishlab chiqarish va moliyaviy resurslarning minimal xarajatlari bilan tashqi bozorlar uchun raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarishni ko‘paytirish uchun zaxiralarni aniqlash va ulardan foydalanishdan

iborat bo‘lishi lozim.

Yuqoridagi fikrlar eksport salohiyati va undan foydalanish darajasini oshirish muammosi juda ko‘p qirrali va ishlab chiqarishni tashkil etish, rejalashtirish va boshqarishning deyarli barcha asosiy muammolari bilan uzviy bog‘liq holda hal etilishi lozim bo‘lgan muammo ekanligini ko‘rsatadi. Eksport salohiyati iqtisodiy jihatdan korxonalar va ularning tarkibiy tuzilmalarining maksimal miqdorda mahsulot ishlab chiqarish qobiliyati, jihozlangan mehnat vositalarining soni, mukammalligi va ishlash qobiliyati, shuningdek ishchilarning salohiyati sifatida qaraladi.

Yuqoridagi tahlillar asosida bizning fikrimizcha eksport salohiyati atamasini quyidagicha ta’riflash mumkin: “korxonaning eksport salohiyati deganda uning raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish, ularni tashqi bozorlarda ham qisqa, ham uzoq muddatda sotish va xizmat ko‘rsatish uchun mavjud resurslari va imkoniyatlari yig‘indisi tushuniladi”.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2023 йил 10 январдаги ПФ-2-сон Фармони. “Пахта-тўқимачилик кластерлари фаолиятини қўллаб-қувватлаш, тўқимачилик ва тикув-трикотаж саноатини тубдан ислоҳ қилиш ҳамда соҳанинг экспорт салоҳиятини янада ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”. Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 13.01.2023 й., 06/23/2/0024-сон.
2. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. Давлат илмий нашрети, Тошкент – 2004 й. 7-жилд, 159-бет.
3. Карачаев И.А. Определение категории «Экспортный потенциал предприятия» в контексте формирования региональной модели ВЭД. Вестник финансового университета №4, 2015. Стр. 24-37.
4. Волкова Е.В. Теоретические и методологические основы формирования и реализации экспортного потенциала промышленных предприятий: дис. ... д-ра экон. наук. Самара, 2007. 347 с.
5. Губин А.М. Совершенствование внешнеторговой деятельности предприятий машиностроения в условиях либерализации ВЭД: дис. ... канд. экон. наук. М., 2006. 203 с.
6. Райзберг Б.А., Лозовский Л.Ш., Стародубцева Е.Б. Современный экономический словарь. М.: ИНФРА-М, 2012. 512 с.
7. Русаков И.А. Управление развитием экспортного потенциала предприятий машиностроительного комплекса: автореф. дис. ... канд. экон. наук. Саратов, 2012. 28 с.
8. Сычев М.С. Развитие методического обеспечения анализа и оценки экспортного потенциала предприятия: дис. ... канд. экон. наук. Йошкар-Ола, 2012. 156 с.
9. Яковлев Г. И. Формирование рыночной стратегии предприятия: рыночный аспект. Саратов: Изд-во СГУ, 2010. 435 с.
10. Экономика предприятия: учебник для вузов / под ред. В.Я. Горфинкеля. М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2008. 767 с., стр. 54–61.
11. Войцеховская И.А. Потенциал предприятия как основа его конкурентоспособности // Проблемы современной экономики. 2006. № 1/2 (17/18), стр. 28-29.
12. Попов Е.В. Рыночный потенциал предприятия. М.: Экономика, 2002. 559 с., стр 51-52.
13. Соколов А. В. Потенциал промышленного предприятия: оценка и управление с системных позиций (на примере угледобывающих предприятий с открытым способом добычи): автореф. дис. ... канд. экон. наук. Кемерово, 2007. 25 с., стр 16-19.
14. Манин П.В. Управление экспортным потенциалом промышленных предприятий (на примере Республики Мордовия): дис. ... канд. экон. наук. Тольятти, 2005. 245 с., стр. 93-94.
15. Самоукин А.И. Потенциал нематериального производства. М.: Знание, 2001. 148 с., стр. 34.
16. Симионова Л.Б. Стратегический менеджмент. URL: <http://enbv.narod.ru/text/Econom/management/simonostrategy/> (дата обращения: 18.06.2015).
17. Сидоренко А.В. Методический подход к оценке повышения эффективности деятельности промышленных предприятий за счет развития экспортного потенциала // Экономические науки. 2010. № 8 (69). С. 57–61.
18. Барнгольц С.Б., Мельник М.В. Методология экономического анализа деятельности хозяйствующего субъекта: учеб. пособие. М.: Финансы и статистика, 2003. 240 с, стр. 56-57.

<p><b>Ш.Джурабоева</b></p> <p><b>Концептуальные основы понятия экспортного потенциала</b></p>	<p><b>Sh.Juraboeva</b></p> <p><b>Conceptual basis of the concept of export potential</b></p>
<p><b>Аннотация:</b> в данной статье обоснована актуальность повышения экспортного потенциала, а также приводятся мнения ученых, занимающихся вопросами повышения экспортного потенциала и определению сущности и значения таких терминов, как «Потенциал», «Производственный потенциал», «Экономический потенциал» и «Экспортный потенциал», а также на основе их теоретического анализа сформулировано авторское мнение.</p> <p><b>Ключевые слова:</b> потенциал, производственный потенциал, экономический потенциал, экспорт, объем экспорта, экспортный потенциал, частный экспортный потенциал, общий экспортный потенциал, ресурс, конкуренция, доход.</p>	<p><b>Abstract:</b> this article substantiates the relevance of increasing export potential, and also provides the opinions of scientists involved in increasing export potential and determining the essence and meaning of such terms as “Potential”, “Production potential”, “Economic potential” and “Export potential”, as well as based on their theoretical analysis, the author's opinion is formulated.</p> <p><b>Keywords:</b> potential, production potential, economic potential, exports, export volume, export potential, private export potential, total export potential, resource, competition, income.</p>

**Rustam Nuridinovich Jiyamuratov** – Samarqand iqtisodiyot va servis institutini tayanch doktoranti

### HUDUDIY EKSPORT SALOHIYATINI OSHIRISHGA OID NAZARIY YONDASHUVLAR

<p><b>Annotasiya:</b> mazkur maqolada hududiy eksport salohiyatining asosiy tarkibiy qismlari, hududiy eksport salohiyatini oshirish bo'yicha ilmiy-nazariy qarashlar tahlili hamda muallif tomonidan hududiy eksport salohiyatini oshirishning konseptual modeli keltirilgan.</p> <p><b>Kalit so'zlar:</b> eksport salohiyati, hudud eksport salohiyati, xomashyo resurslari, mehnat resurslari, moliyaviy resurslar, innovatsion faoliyat, institutsional faoliyat.</p>
---

**Kirish.** Hududning iqtisodiy salohiyati tarkibiy elementlarini sanoat ishlab chiqarish, mehnat resurslari, tabiiy resurslar, infratuzilma, investitsion, ilmiy-texnikaviy va innovatsion faoliyatlar tashkil etadi. Hududning eksport salohiyati hudud iqtisodiy salohiyatining tarkibiy elementlari bilan o'zaro hamkorlikda ta'minlanadi. Eksport salohiyati iqtisodiy salohiyatning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Umuman olganda “salohiyat” tushunchasining lug'aviy ma'nosi lotincha “potentia” so'zidan kelib chiqqan bo'lib, quvvat, kuch, imkoniyat degan ma'noni anglatadi. Iqtisodiy adabiyotlarda ushbu tushunchaning mazmuniga turlicha yondashuvlar mavjud. Lekin ko'p hollarda bu tushuncha har qanday sohada mavjud vositalar va imkoniyatlar to'plami sifatida qaraladi. L.I.Abalkin ta'rifiga ko'ra, salohiyat – bu joy va vaqt bilan bog'liq bo'lgan resurslarning umumlashtirilgan, jamoaviy tavsifidir.

Tashqi iqtisodiy faoliyatda salohiyat tushunchasi “eksport salohiyati” tushunchasi bilan bog'liq. Ko'pchilik mutaxassislarning fikricha “eksport salohiyati” tushunchasi iqtisodiy kategoriya sifatida XX asrning 90-yillarning boshlarida ilmiy muomalaga kirib kelgan. “Eksport salohiyati” tushunchasi davlat, hudud, sanoat va biznes yurituvchi subyektlar darajasida qo'llaniladi. Olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlarida “eksport salohiyati” tushunchasi aniq bir korxonaga nisbatan “korxonaning eksport salohiyati”, iqtisodiyotning tarmoq va sohalariga nisbatan “tarmoq va soha eksport salohiyati”, aniq bir hududga nisbatan “hududiy eksport salohiyati” va mamlakatga nisbatan “mamlakat eksport salohiyati” foydalanib kelinmoqda.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Zamonaviy iqtisodiy adabiyotlarda “eksport salohiyati” tushunchasining turli talqinlari mavjud. B.A.Rayzberg, L.Sh.Lofovskiy, Ye.B.Starodubsevalar o'zlarining zamonaviy iqtisodiyot lug'atida “eksport salohiyati – bu raqobatbardosh tovarlarni zarur miqdorda ishlab chiqarish va eksport qilish imkoniyati” deb ta'riflashgan. Mazkur ta'rifda eksport salohiyati tovar raqobatbardoshligi va ishlab chiqarish hajmi bilan bog'liq ekanligiga urg'u berilmoqda. Haqiqatan ham tovar raqobatbardoshligi eksport salohiyatini belgilab beruvchi muhim ko'rsatkich hisoblanadi. Lekin eksport salohiyati faqat tovar raqobatbardoshligi bilan aniqlanadigan faoliyat emas.

ISSN 2091-5187

❧ “СЕРВИС” ❧

Журнал Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти таҳририят  
бўлимида нашрга тайёрланди.

27.05.2024 йилда теришга берилди. 14.06.2024 йилда босишга рухсат этилди.  
Офсет босма қоғози. Қоғоз бичими 60x84<sub>1/8</sub>. “Times” гарнитураси. Офсет  
босма усули. Шартли босма табоғи 15,76. Ҳисоб-нашриёт  
табоғи 12,5. Адади 100 нусха. Буюртма № 0076В/24

Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институтининг  
матбаа бўлимида чоп этилди.  
Лицензия № 025316.  
Реестр № Х-119112.

Манзил: Самарқанд шаҳри, Шохрух кўчаси, 60-уй.

© Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти, 2024.